

O'RTA OSIYO RESPUBLIKALARIDA O'TKAZILGAN MILLIY-HUDUDIY CHEGARALANISH

Kuryazov Izzat

Gurlan tuman 1-son politexnikumi o'qituvchisi

Annotasiya: ushbu maqolada O'rta Osiyo Respublikalarida o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, O'rta Osiyo, yagona hudud, diniy e'tiqod, xo'jalik, milliy-hududiy chegaralash.

NATIONAL-TERRITORIAL DELIMITATION HELD IN THE CENTRAL ASIAN REPUBLICS

Kuryazov Izzat

Gurlan district Polytechnic No. 1

Annotation: this article provides an overview of the national-territorial delimitation conducted in the republics of Central Asia.

Keywords: Turkestan, Central Asia, unified territory, religious faith, economic, national-territorial delimitation.

Turkiston mintaqasi azaldan turkiy xalqlarning yagona maskani va umumiy vatani bo'lgan. 1918–1924-yillarda mavjud bo'lgan Turkiston ASSR, BXSR, XXSRning tub xalqlari asrlar davomida turmush tarzi va an'analarini jihatidan birlariga juda yaqin bo'lishgan. Turkistondagi turli davlatlarning har birida turkiy xalqlar: o'zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, qirg'izlar, shuningdek, tojik xalqi azaldan yashaganligi tarixiy tarkib topgan hodisa edi. Turkiston mintaqasining xalqlari shu tuproqni, Turonzaminni qadimdan o'zlarining asl Vatani deb bilganlar. Mustabid sovet rejimi va bolsheviklar uchun esa Turkiston o'lkasini bo'lib tashlab, uni idora qilish qulay edi. Xususan, bu jarayon Turkistondagi istiqlolchilik harakati 1924-yilda, asosan, mag'lubiyatga uchraganidan keyin o'zining so'nggi bosqichiga qadam qo'ydi.

1917-yili Turkistonda muhim siyosiy o‘zgarishlar yuz berdi. Mintaqa xalqlari mustamlakachilikning 50 yillik zulmiga qarshi milliy-ozodlik kurashini avj oldirib yubordilar. Ma’rifatparvarlik harakati sifatida vujudga kelgan jadidchilik Turkiston taqdiri hal qilinayotgan paytda o‘zbek xalqini g‘oyaviy jihatdan birlashtiruvchi kuch sifatida maydonga chiqdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Xo‘jayev), Mustafo Cho‘qayev, Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on kabi jadid taraqqiyatparvarlari Turkistonga muxtoriyat maqomi berish uchun kurashdilar va siyosiy jarayonlarga faol aralashdilar. O‘lka xalqlarining dastlabki ijtimoiy-siyosiy jamiyati — «Sho‘roi Islomiya» tuzilib, u muxtoriyatchilik harakatining tepasida turdi. Bu paytda Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududida Yosh buxoroliklar va Yosh xivaliklar partiyasi a’zolari demokratik islohotlar o‘tkazish uchun o‘z faoliyatlarini kuchaytirdilar. Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Polvonniyozi Hoji Yusupov ularning rahbarlari edi. Afsuski, 1917-yil noyabrda tashkil topgan Turkiston Muxtoriyati hukumati — xalqimiz tarixidagi dastlabki demokratik hukumat oradan ko‘p o‘tmay mustabid sovet tuzumi va bosqinchi qizil askarlar tomonidan qonga botirildi. Hukumat faoliyat ko‘rsatgan Qo‘qon shahri vayron qilindi, tinch aholi qirg‘inga duchor etildi. 1918-yil fevral oyida dastlab Qo‘qon atroflarida boshlangan istiqlolchilik harakati tez orada butun Turkiston mintaqasiga tarqaldi. Farg‘ona vodiysida Kichik va Katta Ergasli, Madaminbek, Shermuhammadbek, Islom Pahlavon, Yormat Mahsum, Buxoroda Ibrohimbek, Anvar Posho, Mulla Abdulqahhor, Xorazmda Junaidxon kabi qo‘rboshilar harakatga qo‘mondonlik qilishdi. Biroq Turkistonning mustaqilligi va ozodligi uchun kurasligan istiqlolchilar sovet davrida «bosmachi» va «xalq dushmani» sifatida ko‘rsatilib, jamoatchilik fikri shu yo‘nalishda shakllantirildi. Aslini olganda, istiqlolchilik harakatining boshidan oxirigacha bir buyuk g‘oya ustunlik qilgan edi. Bu g‘oya butun Turkistonning milliy istiqlol va mustaqilligi g‘oyasi bo‘lib, u harakatning asosiy maqsadi bo‘lib qolaverdi. Istiqlolchilik harakati tarixi o‘zbek xalqining sovet davri tarixiga uning eng shonli vazafarli, shuningdek, qayg‘uli va dard-alamli sahifalari bo‘lib yozildi.

Markaziy Osiyo, jumladan, Turkiston, Buxoro va Xorazm davlatlarining tub xalqlari necha asrlar davomida turmush tarzi va an’analari jihatidan bir-biriga

yaqin bo‘lib keldilar. Buxoro va Xorazm XX asr 20-yillarining boshiga qadar mustaqil davlatlar bo‘lgan. Bu mintaqa yagona zamini, o‘z xo‘jaligi, an’analari, dini, madaniyatining mushtarakligi bilan ajralib turgan. Mana shu davlat tuzilmalari doirasida har bir xalq yoki alohida urug‘lar xo‘jalik hayoti tizimidagi o‘z o‘rnini egallab, o‘zining ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati bilan davlat va mintaqa ijtimoiy hayotining yaxlit zanjiridagi uzilmas halqani taslikil etgan. Turkiston mintaqasining xalqlari shu zaminni qadimdan o‘zlarining asl vatanl deb bilganlar. Vatan yagonaligi hissi xalq ijodiyotida, an’alarida, madaniyatida o‘z aksini topgan va shu mintaqada yashab turgan barcha xalqlarning abadiy qadriyatiga aylangan.

Bu mintaqaning xalqlari birdir degan g‘oya avloddan-avlodga o‘tib, milliy yetakchilar, jamoat arboblari vamilliy ziylilarning qarasllari hamda amaliy faoliyatlarida aks etdi. Hudud yaxlitligiga, xalqning birligiga xavf-xatar tug‘ilgan kezlarda ana shu g‘oya xuddi bir qalqondek bo‘lib turdi, xalqlarning bir-biridan ajralib, uzoqlashib ketishining oldini oluvchi omil bo‘lib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, haqiqatdan ham O‘rta Osiyo davlatlaridan har birining ko‘p millatli ekanligi, o‘zbeklar, turkmanlar, tojiklar, qoraqalpoqlar, qirg‘izlar, qozoqlar va boshqa yerli xalqlarning uchala davlat hududlarida tarqalib yashashlari tarixan an’anaviy bo‘lgan. Shunday qilib, O‘rta Osiyoni chegaralab bo‘lish va milliy respublikalar tuzish g‘oyasi 1924-yilda amalga oshirila boshlandi

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekistonning yangi tarixi: O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinci kitob. T.:Sharq, 2000.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: O‘zbekiston, 2006.
3. O‘zbekiston SSR tarixi. I.Mo‘minov tahriri ostida. T.: Fan,1971.
4. Abduxoliq Rabbimov. O‘rta Osiyo xalqlarining milliy hududiy chegaralanishini maqsad va madaniyati. International scientific and practical conference "innovative approaches in study of the language, literature, translation, tourism and cultural heritage on the silk road", MAY 3-4, 2024